

## NOORGANIK BIRIKMALARNING ASOSIY SINFLARI MAVZUSIDA “CHARXPALAK” METODINI QO’LLASH



**Murodov D.M**

Buxoro davlat pedagogika instituti Tabiiy fanlar kafedrasi o‘qituvchisi

**Sharopova Y.A**

G‘ijduvon tumanidagi 10-son umumiylar va o‘rta ta’lim maktabi Kimyo fani  
o‘qituvchisi

**Ibragimov D.F**

Kogon tumanidagi 10-son umumiylar va o‘rta ta’lim maktabi Kimyo fani o‘qituvchisi

E-mail:[doston\\_ximik@mail.ru](mailto:doston_ximik@mail.ru)

### ANNOTATSIYA

“Charxpak” metodi o‘quvchilarni o‘tilgan mavzularni esga olishga, mantiqan fikrlab, berilgan savollarga mustaqil ravishda to‘g‘ri javob berishga va o‘z-o‘zini baholashga o‘rgatishga hamda qisqa vaqt ichida o‘qituvchi tomonidan barcha o‘quvchilarining egallagan bilimlarini baholashga qaratilgan.

**Kalit so‘zlar:** Charxpak, Oksik, kislata, tuz, asos, Noorganik birikma, Potash, Natriy xlor.

### ABSTRACT

The "charxpak" method is aimed at teaching students to remember the topics covered, think logically, answer the questions asked independently correctly and self-assessment, and in a short time to evaluate the knowledge acquired by the teacher by all students.

**Keywords:** charkhpak, Oxic, acid, salt, base, inorganic compound, Potash, sodium chloride.

**Metodning maqsadi:** “Charxpak” metodi o‘quvchilarni dars jarayonida mantiqiy fikrlash, o‘z fikrlarini mustaqil ravishda erkin bayon eta olish, o‘zlarini baholash. yakka va guruhlarda ishlashga. boshqalar fikriga hurmat bilan qarashga, ko‘p fikrlardan keraklisini tanlab olishga o‘rgatish.

**Metodning qo‘llanilishi:** “Charxpak” metodi o‘quv mashg‘ulotlarining barcha turlarida dars boshlanishi yoki dars oxirida yoki o‘quv predmetining biron bir bo‘limi tugallanganda, o‘tilgan mavzularni o‘quvchilar tomonidan o‘zlashtirilganlik darajasini

baholash, takrorlash, mustahkamlash yoki oraliq va yakuniy nazorat o‘tkazish uchun mo‘ljallangan. Ushbu metodni mashg‘ulot jarayonida kichik guruh va jamoa shaklida tashkil etish mumkin.

**Mashg‘ulotda foydalaniladigan vositalar:** Tarqatma materiallar, marker

Mashg‘ulotni tashkil etishda reja bo‘yicha belgilangan mavzu

**(Noorganik birikmalarning asosiy sinflari)** hamda o‘qituvchining qo‘ygan maqsadi asosida (tekshirish, mustahkamlash, baholash) tarqatma materiallar (guruh o‘quvchilari soniga qarab) tayloranadi.

**Mashg‘ulotni o‘tkazish**

1.O‘quvchilarni guruhlarga ajratish.

2.O‘quvchi mashg‘ulotni o‘tkazishga qo‘yilgan talablar va qoidalar bilan tanishtirish.

3.Tarqatma materiallarni guruh a’zolariga tarqatish.

4.Guruh a’zolari tomonidan yakka holda ravishda tarqatma materiallardagi osi o‘zi ishlagan tarqatma materialining o‘ng burchagiga guruh vazifalar bajariladi.

5.Har bir guruh a’zo raqamini yozadi, chap burchagiga esa o‘zining biron-bir belgisini chizib qo‘yadi.

6. Vazifa bajarilgan tarqatma materiallar boshqa guruhlarga «charxpalak aylanmasi» yo‘nalishida almashtiriladi.

7.Yangi guruh a’zolari tomonidan berilgan materiallar o‘rganiladi va o‘zgartirishlar kiritiladi.

8.Jamoalar tomonidan o‘rganilgan va o‘zgartirishlar kiritilgan materiallar yana yuqorida eslatilgan yo‘nalish bo‘yicha guruhlararo almashtiriladi (ushbu jarayon guruhlar soniga qarab davom ettiriladi).

9.Materialami oxirgi almashinishdan so‘ng har bir guruh va har bir guruh a’zosi o‘zлari ilk bor to‘ldirgan materiallarini (guruh raqami va o‘zлari qo‘ygan belgilari asosida tanlab oladilar).

10.Har bir guruh a’zosining o‘zлari belgilagan javoblariga boshqa guruh a’zolarining tuzatishlarini taqqoslaydilar va tahlil qiladilar.

11.O‘qituvchining tarqatma materialda berilgan vazifalarini o‘qiydi va jamoa bilan birgalikda to‘g‘ri javoblarni belgilaydi.

12.Har bir o‘quvchi to‘g‘ri javob bilan belgilangan javoblar farqlarini aniqlaydilar, kerakli ballni to‘playdilar va o‘z-o‘zini baholaydilar.


**Izoh:** tarqatma materialda o‘quvchilar belgilagan to‘g‘ri javoblar bilan o‘qituvchi hamkorligida aniqlangan to‘g‘ri javoblarining farqi 55 foizdan yuqori bo‘lsa, o‘quvchi ushbu o‘quv materialini o‘zlashtirgan, undan kam bo‘lsa o‘zlashtira olmaganligini bildiradi. O‘quvchilar o‘z baholari yoki ballarini belgilab oli hgach, o‘qituvchi vazifa bajarilgan qog‘ozlarni yig‘ib oladi va ballarni guruh jurnaliga ko‘chirib qo‘yadi.

Quyida «Charxpalak» metodidan foydalangan holda “**Noorganik birikmalarning asosiy sinflari**” mavzusida mashg‘ulot o‘tkazish uchun zarur bo‘lgan materialni taqdim etamiz.

Tarqatma №1

<b>Modda</b>	<b>Noorganik birikmalarning asosiy sinflari</b>			
	<b>Oksid</b>	<b>Kislota</b>	<b>Asos</b>	<b>Tuz</b>
Karbonat angidrid ( $\text{CO}_2$ )	+			
Natriy hidroksid ( $\text{NaOH}$ )			+	
Vodorod xlorid ( $\text{HCl}$ )		+		
Potash ( $\text{K}_2\text{CO}_3$ )				+
Vodorod sulfit ( $\text{H}_2\text{SO}_3$ )		+		
Natriy xlor ( $\text{NaCl}$ )				+
Ortofosfat ( $\text{H}_3\text{PO}_4$ )		+		
Malaxit ( $\text{CuCO}_3 \cdot \text{CuCl}_2$ )				+

**Izoh:** Ushbu namunadagi “+” belgilarini olib tashlangan holda o‘quvchilarga tarqatma tayyorlanadi.



**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:**

1. I. Asqarov va boshq 8-sinf Kimyo darsligi, Toshkent, “Yangiyul Poligraph Service”, 2019.
2. N.G.Rahmatullayev, H.T. Omonov, Sh.M. Mirkomilov; Kimyo o'qitish metodikasi -Toshkent. dqtisod-Moliya», 2013. -320 b.
3. X.T.Omonov., M.N.Mirvoxidova. “Kimyo o'qitish metodikasi” ma'ruzalar matni. 2001.
4. Madumarov T., Kamoldinov M.. Innovasion pedagogik texnologiya asoslari va uni ta`lim-tarbiya jarayonida qo`llash. «Toshkent-Talqin» 2012 yil.
5. Kamoldinov M., Vaxobjonov B., Innovasion pedagogik texnologiya asoslari. «Toshkent-Talqin» 2010 yil.